

MARKAZIY FARG'ONA CHO'LLARIDA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA YASHIL MAKON YARATISH: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li
g.f.f.d (PhD) v.b.dotsent
Andijon davlat pedagogika instituti

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Farg'ona cho'llarida Xitoy tajribasi asosida "Yashil makon" loyihasini amalga oshirishdagi tajribalari va bugungi kundagi olib borilayotgan ishlar yuzasidan batafsil yoritilgan. Shuningdek Markaziy Farg'ona cho'llarida "Yashil makon" loyihasining amalga oshirishda hududning ekotizimlarini saqlab qolish va bioxilma-xillikni kengashtirish bo'yicha ham ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Yashil makon, Gobi, Markaziy Farg'ona, cho'llar, ko'klamzorlashtirish, iqlim, o'simlik, cho'llanish, qurg'qchilik, tuproq, o'rmon xo'jaligi, bioxilma-xillik, sho'rlanish.*

CREATION OF GREEN COMMUNICATORS IN THE CENTRAL FERGANA DESERT BASED ON THE CHINESE EXPERIENCE: ANALYSIS AND PROSPECTS

Urayimjon Shavkatjon ogly Uktamov
Doctor of Philosophy in Geography (PhD),
acting associate professor
Andijan State Pedagogical Institute

***Abstract:** This article describes in detail the experience and ongoing work of implementing the Green Space project in the Central Fergana deserts, using China as an example. It also provides information on the conservation of regional ecosystems and the enhancement of biodiversity through the Green Space project in the Central Fergana deserts.*

***Keywords:** Green Space, Gobi, Central Fergana, deserts, greening, climate, vegetation, desertification, drought, soil, forestry, biodiversity, salinity.*

Kirish. Bugungi kunda dunyoda iqlim o'zgarishi va haroratning keskin ortishi natijasida hududlardagi ekotizimlarga salbiy ta'siri tobora ortib bormoqda va dolzarb muammolarga aylanmoqda. Shu sababli mamlakatimizdagi cho'l hududlarda cho'llanish ortishi va o'simlik qoplaminig yo'q bo'lib ketishini kuzatilmoqda. Misol tariqasida Farg'ona vodiysidagi Markaziy Farg'ona cho'llarini keltirishimiz mumkun. Hududning quruq iqlimligi, insonlar tomonidan ko'p o'zlashtirilishi va cheklangan o'simliklari bilan mashhur bo'lgan bu hudud bugungi kunda ekologik muammolarga duch kelmoqda. Jumladan cho'llanish, tuproq degradatsiyasi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabilarni

keltirishimiz mumkun. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Mamlakatimizda bir qancha ishlar olib borilmoqda[3].

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023 yildagi PF-199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.05.2025 yildagi PF-90-son “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o‘rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024 yildagi 804-son “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori asosida Markaziy Farg‘ona cho‘llarida “Yashil makon” loyihasini amalga oshirish uchun Xitoy tajribasi asosida loyihalar tayorlandi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, Markaziy Farg‘ona cho‘llarining nafaqat cho‘llanishga qarshi kurashish zarurati, balki mintaqaning tabiiy resurslariga bog‘liq bo‘lgan mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilash istagidan ham kelib chiqadi. “Yashil makon” dasturi qurg‘ochilikka chidamli daraxtlar ekish, agroo‘rmon xo‘jaligi va boshqa ko‘kalamzorlashtirish usullarini o‘z ichiga olgan ekotizimni tiklashga kompleks yondashuvni ifodalaydi[6]. Markaziy Farg‘ona cho‘llarida qo‘llaniladigan hozirgi ko‘kalamzorlashtirish usullarini, shuningdek, o‘zgaruvchan iqlim sharoitida ularning samaradorligi va qo‘llanilishini tahlil qiladi.

Asosiy qism. Cho‘l hududlarida “Yashil makon” loyihasini yaratish birinchi marta Xitoyning Gobi cho‘lida boshlandi. Xitoyning iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar fonida 1978 yilda boshlangan bu loyiha jiddiy ekologik oqibatlariga olib kelgan intensiv iqtisodiy o‘sishga urg‘u berildi. Shu nuqtai nazardan, Gobi cho‘lini yashil hududga aylantirish ekologik tiklanish strategiyalaridan biriga aylandi [1]. Cho‘l hududlarini ko‘kalamzorlashtirish tashabbusi nafaqat mahalliy ekologik sharoitni yaxshilash, balki mamlakatning dolzarb ekologik ehtiyojlarini qondiradigan barqaror rivojlanishni ta’minlashga olib keldi [2].

Shu loyihanim o‘rganish asosida Markaziy Farg‘ona cho‘llarida ham “Yashil makon” loyihasini olib borilishi hududdagi mahalliy iqlim sharoitiga va tuproqqa moslashgan o‘simliklar turlaridan foydalanish ekotizimning quyi qatlamlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki bunday o‘simliklar namlikni kam talab qiladi va og‘ir sharoitlarda omon qolishi imkonini yaratadi. Sho‘rlanishga, cho‘llanishga va eroziyaga uchragan tuproqlarning turlari va tuzilishini monitoring qilish, hududlardagi nobud bo‘layotgan o‘simliklar tegishli tashkilot hamda qishloq

xo'jaligi boshqarmalariga o'z vaqtida chora tadbirlarni belgilash va amalga oshirish imkoniyatini beradi[4].

Loyihada olinadigan natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, Markaziy Farg'ona cho'llarini "Yashil makon" ga aylantirish orqali cho'l hududini ko'kalamzorlashtirish, qishloq xo'jaligi yerlarini tashkil etuvchi tuproqlarning holatini yaxshilash, eroziya va samaradorlik jihatdan baholash mumkin. Cho'llanishni keltirib chiqaruvchi kriteriyalarni ham holatini bilib borish imkoniyati yaratiladi. Monitoring tizimi orqali ushbu cho'l tuproqlarga bo'lgan munosabat va agrotexnologik tadbirlarni to'g'ri rejalashtirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek Markaziy Farg'ona cho'llariga moslashtirilgan mahalliy o'simliklardan foydalanish ularni parvarishlash xarajatlarini kamaytirishi va salbiy atrof-muhit ta'sirini kamaytirish yo'llarini ochib beradi [5]. Ekinlar bilan birgalikda daraxt va butalarni ekish kabi simbiotik ekish usullaridan foydalanish muhim qadam bo'lib, ular shamol to'siqlarini hosil qiladi va yanada qulay mikroiqlim sharoitlarini yaratishga hizmat qiladi. Markaziy Farg'ona cho'llarida barqaror ekotizim yaratishga qaratilgan fanlararo yechimlarni izlashga sharoit yaratgan holda, ekotizim barqarorligini oshirishga, biologik xilma-xillikni saqlashga va mahalliy aholining turmush sharoitini yaxshilashga olib keladi.

Tadqiqotlardan olinadigan natijalar shulardan iboratki Markaziy Farg'ona cho'llarini "Yashil makon" ga yoki ko'kalamzorlashtirish loyihasining iqtisodiy foydasi, ekologik va ijtimoiy jihatlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni ifodalaydi. Mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilash va biznes imkoniyatlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Cho'l hududlarini "Yashil makon" ga aylantirish, qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilashga olib keladi. Bu cho'l tuproqlarining qayta tiklanishi, unumdorligi va qurg'oqchilikka chidamliligini oshirish bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida mahalliy fermerlarga ekinlar hosildorligi va mahsulot sifatini oshirish imkonini yaratadi. Agrotexnik salohiyatning yuksalishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo'naltirilgan korxonalar tashkil etishda yangi istiqbollarni oshishiga hizmat qiladi.

Mahalliy aholi organik mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq o'z biznesini ochishi mumkin, bu nafaqat ularning daromadlarini oshirish, balki tabiiy resurslarni saqlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, Markaziy Farg'ona cho'llarini ko'kalamzorlashtirish hududdagi ekoturizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Ushbu turdagi biznes turistlarni qayta tiklangan ekotizimlarga jalb qilishga asoslangan bo'lib, bu qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi va mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantiradi. Ekoturizm nafaqat daromad keltiradi, balki mintaqa aholisi va mehmonlarida atrof-

muhitni muhofaza qilish muhimligi haqida tushunchalar hosil bo'lishiga olib keladi [8].

Muhim jihat xalqaro hamkorlikdir. Markaziy Farg'ona cho'llarini muvaffaqiyatli "Yashil makonga" ga aylantirish yoki ko'kalamzorlashtirish hududga zarur bo'lgan resurslar va texnologiyalarni birlashtirish uchun hamkorlik qilishga sharoit yaratish zarur bo'ladi. Bu ushbu hududda iqlim o'zgarishi va cho'llanishga qarshi kurashga qaratilgan xalqaro investitsiyalar va loyihalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. O'zbekistonda "Yashil makon" dasturi doirasida boshlangan bir qancha ishlar qatori Markaziy Farg'ona cho'llarini ham yashil hududga aylantirish loyihasi mintaqa ekotizimiga va mahalliy aholi hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega bo'lgan ulkan va istiqbolli loyiha bo'lib xizmat qiladi. Loyihaning turli jihatlari, jumladan, ko'kalamzorlashtirish usullari, iqlim o'zgarishining ta'siri va boshqa cho'l hududlarida ekotizimni muvaffaqiyatli tiklash uchun Gobi cho'lida olib borilgan sihlar misollari ko'rib chiqildi.

Muhim nuqtalardan biri bu "Yashil makon" loyihasining ahamiyati bo'lib, u nafaqat cho'llanishga qarshi kurashish, balki iqlim o'zgarishining salbiy ta'siriga bardosh bera oladigan mustahkam ekotizim yaratishga qaratilgan. Global isish va qurg'oqchilik va cho'l hududlarini insonlar tomonidan o'zlashtirilishi kuchayib borayotgan bir sharoitda Markaziy Farg'ona cho'llarini ko'kalamzorlashtirish zaruriy holga aylanib bormoqda. Bu nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilash, balki yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy aholining turmush farovonligini oshirish, hudud iqtisodiyotini mustahkamlash imkonini beradi.

Markaziy Farg'ona cho'llarida "Yashil makon" loyihasini amalga oshirishdagi ko'kalamzorlashtirish usullari qurg'oqchilikka chidamli cho'l o'simliklari (daraxtlar) ekish va agroo'rmon xo'jaligidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar ekotizimni tiklashda sezilarli yutuqlarga erishiladi. Xitoyning Gobi cho'li kabi boshqa mintaqalarda allaqachon samarali ekanligini isbotlandi. Muvaffaqiyatli misollar bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, agrotexnika va ekologik jihatlarni o'zida mujassam etgan kompleks yondashuv belgilangan maqsadlarga erishishda eng samarali hisoblanadi.

Markaziy Farg'ona cho'llarida olib borilayotgan loyihaning asosiy elementi bo'lgan agroforestry (o'rmon xo'jaligi) nafaqat o'simliklarni tiklaydi, balki tuproq sharoitini ham yaxshilaydi, bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirishga xizmat qiladi. Bu hududni yanada rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha iqtisodiy manfaatlar yaratadi. "Yashil makon" loyihasini amalga oshirishning iqtisodiy jihatlari qatoriga investitsiyalarni

jalb qilish va mahalliy aholi uchun muhim daromad manbaiga aylanishi mumkin bo'lgan ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham kiradi.

Markaziy Farg'ona cho'llarida yashil maydonlarning yaratish va kengaytirish hududning havo sifatini yaxshilash, biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy resurslarni tiklashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, mahalliy aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Markaziy Farg'ona cho'llarini "Yashil makon" loyihasini amalga oshirishda bir qator ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan ko'p qirrali tashabbuslardan biri hisoblanadi. Ushbu loyihaning muvaffaqiyati keng qamrovli yondashuv, mahalliy ishtirok va xalqaro hamkorlikka bog'liq bo'lib, bu pirovardida ushbu noyob mintaqada barqaror va gullab-yashnayotgan ekotizimni yaratishga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Подшибякина Т.А. Золотой щит Китая: политика управления мнемоническими интернет-практиками // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Политология. 2020. №2.

2. Дедков В.П., Гунин П.Д. О микроклимате природных оазисов крайне аридной пустыни Заалтайской Гоби // Аридные экосистемы. 2014. №4 (61).

3. Боймирзаев К.М., Мирзахмедов И.К. Ўзлаштирилган арид худудларнинг мелиоратив ҳолати ва уларни қулайликлаштириш // География XXI асрда: муаммолар, ривожланиш истиқболлари. Республика илмий – амалий конференцияси материаллари. Самарқанд, 2017 йил 121-122 бетлар.

4. Духовный В.А. Динамика современного водохозяйственного баланса Ферганской долины /

5. Максудов А. Изменение почвенно-экологических условий Ферганской долины под антропогенным воздействием. Ташкент. Фан. 1990. – 92 с

6. Уктамов У.Ш. Факторы, влияющие на трансформацию ландшафтов Центральной Ферганской пустыни. // "Экономика и социум" №7 (98) 2022. www.iupr.ru. "Институт управления и социально-экономического развития", Россия, г. Саратов. ISSN 2225-1545.(11.00.00. Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари № 11). 378-382 с.

7. Uktamov U. Sh. Anthropogenic factors affecting the desertification of the deserts of Central Fergana. // Journal of Geography and Natural Resources, 04-Jild, 01-Son, 2024. ISSN : 2181-2713. – B-32-37.

8. Uktamov U.SH. Markaziy Farg‘ona cho‘l landshaftlarining antropogen omillar ta’sirida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlari //FarDU ilmiy xabarlar jurnali, 1-son. Farg‘ona, 2024. – B.248-252. (11.00.00, №8).